

NEMIS TILIGA INGLIZ TILIDAN O‘ZLASHGAN SO‘ZLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

LINGUISTIC FEATURES OF ENGLISH LOANWORDS IN THE GERMAN LANGUAGE

Fozilova Shahzoda Vahob qizi
O‘zMU Filologiya va tillarni
o‘qitish(nemis tili) 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar –*Umarova Zamira*
O‘zMU o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola “Nemis tiliga ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlarning xususiyatlari” mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda nemis tiliga ingliz tilidan kirib kelgan o‘zlashma so‘zlarning lingvistik jihatlari atroflicha tahlil qilinadi. Maqolada o‘zlashgan leksik birliklarning fonetik, morfologik va semantik xususiyatlari ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, ingliz tilining global til sifatidagi ta’siri natijasida nemis tilining lug‘aviy tarkibida yuz berayotgan o‘zgarishlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida zamonaviy nemis tilida keng qo‘llanilayotgan anglizmlar misollar asosida tahlil qilinib, ularning til tizimidagi o‘rni va funksional xususiyatlari aniqlashtiriladi. Bundan tashqari, o‘zlashgan so‘zlarning til boyligini oshirishdagi roli hamda ularning nutqdagi qo‘llanish darajasi yoritiladi. Maqolada ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlarning nemis tilidagi rivojlanish jarayoni va ularning lingvistik ahamiyati haqida xulosalar chiqarilgan.

Annotation: This article is devoted to the topic “The features of English loanwords in the German language” and provides a comprehensive analysis of the linguistic characteristics of borrowed words from English into German. The study examines the phonetic, morphological, and semantic aspects of these lexical units from a scientific perspective. In addition, the influence of English as a global language on the development of the German vocabulary is discussed. During the research, commonly used Anglicisms in modern German are analyzed based on relevant examples, and their role and functional features within the language system are identified. Furthermore, the article highlights the contribution of loanwords to the enrichment of the vocabulary and their frequency of usage in everyday speech. The development process of English borrowings in German and their linguistic significance are also summarized.

Kalit so‘zlar: o‘zlashma so‘zlar, anglizmlar, nemis tili, ingliz tili, fonetika, semantika, morfologiya, sintaksis, til aloqasi

Keywords: loanwords, anglicisms, German language, English language, phonetics, semantics, morphology, syntax, language contact

Ma'lumki, har qanday tilning lug'aviy tarkibi faqat o'z qatlamidan iborat bo'lmaydi. Til doimo boshqa tillar bilan o'zaro aloqada rivojlanadi va bu jarayonda o'zlashma so'zlar muhim rol o'ynaydi. Nemis tili ham tarixiy rivojlanish jarayonida turli tillar, ayniqsa ingliz tili bilan yaqin aloqada bo'lib kelgan. Bugungi kunda ingliz tilining xalqaro miqyosdagi mavqei oshib borayotgani sababli nemis tiliga ingliz tilidan kirib kelayotgan so'zlar soni ham ortib bormoqda. Ushbu o'zlashmalar ko'pincha texnika, iqtisodiyot, siyosat va kundalik nutq sohalarida faol qo'llaniladi. Nemis tilida o'zlashgan so'zlar asosan ikki turga bo'linadi:

1. To'liq o'zlashgan so'zlar (Lehnwörter) — tilga to'liq moslashgan va begona sifatida sezilmaydigan birliklar.
2. Chet so'zlar (Fremdwörter) — o'zining asl shaklini saqlab qolgan va xorijiy kelib chiqishi sezilib turadigan so'zlar. Masalan: Computer, Team, Manager kabi so'zlar kundalik nutqda keng qo'llaniladi.

O'zlashish yo'llari: Nemis tiliga ingliz tilidan o'zlashish bir necha usullar orqali amalga oshadi:

1. Bevosita o'zlashish (Entlehnung) So'z asl shaklida qabul qilinadi:

Computer, Internet, Job

2. Tarjima orqali o'zlashish (Lehnübersetzung) So'zning ma'nosi tarjima qilinadi:

Wolkenkratzer (skyscraper)

3. Xalqaro so'zlar (Internationalismen) Bir nechta tillarda bir xil shaklda ishlatiladi:

Student, Manager, Telefon

So'z o'zlashishi tilshunoslik nuqtayi nazaridan fonetik, morfologik, semantik va sintaktik jihatlarda tahlil qilinadi.

Fonetik jihatlari:

O'zlashgan so'zlar qabul qiluvchi tilning fonetik tizimiga moslashadi va talaffuz o'zgaradi.

Nemis tilida ingliz tilidan o'zlashgan so'zlarda tovush va urg'u o'zgarishi kuzatiladi.

Masalan:

“Team” [ti:m] (inglizcha talaffuz) → [ti:m], lekin nemis tilida urg'u va intonatsiya boshqacha qo'llaniladi.

Yana bir misol:

“Job” [dʒɒb] (inglizcha) → [dʒo:p] (nemischa talaffuzga yaqinlashadi).

Morfologik jihatlari:

O'zlashma so'zlar qabul qiluvchi tilning grammatik tizimiga moslashtiriladi.

Nemis tilida o'zlashgan so'zlar nemis grammatik qoidalariga bo'ysunadi va artikl hamda ko'plik shaklini oladi. Masalan:

“das Team” (inglizcha team) nemis tilida ot sifatida ishlatiladi va “die Teams” shaklida ko‘plik yasaydi.

Yana bir misol:

“der Manager” (inglizcha manager) nemis tilida erkak jinsdagi ot sifatida qabul qilinadi va deklinatsiyaga bo‘ysunadi:

der Manager

des Managers

dem Manager

den Manager

Semantik jihatlar:

1. So'zning asosiy ma'nosi yoki qo'shimcha ma'nolari o'zgarishi mumkin.
2. Semantik torayish yoki kengayish kuzatilishi mumkin: masalan, nemis tilida "Handy" so'zi ingliz tilidagi handy sifatidan kelib chiqqan, lekin nemis tilida "mobil telefon" ma'nosini olgan.

Sintaktik jihatlar:

1. O'zlashgan so'zlar jumla tarkibida o'zbek va nemis tili kabi morfologik jihatdan farqlanuvchi tillarda turlicha qo'llanadi.

Masalan, nemis tilida inglizcha "to download" fe'li herunterladen shakliga moslashgan va fe'l oxirida keladi: Ich lade das Programm herunter ("Men dasturni yuklab olmoqdaman").

Psixolingvistika nuqtayi nazaridan, so'z o'zlashishi ong, idrok va kognitiv jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, quyidagi jihatlar ajralib turadi.

Ikki va ko'p tillilik ta'siri:

1. Bilingv va polylingv shaxslar so'zlarni tilda tezroq o'zlashtiradi.
2. Kode-almashish (Code-Switching) va kode-aralashish (Code-Mixing) fenomenlari kuzatiladi; bu jarayonda kishi bir vaqtning o'zida bir necha tillardan foydalanishi mumkin: Ich habe ein Meeting um 10 Uhr (Men soat 10 da yig'ilishim bor).

Nemis tili o'zining boy ilmiy va texnik terminologiyasi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, zamonaviy ilm-fan va texnologiya rivoji natijasida ingliz tilidan ko'plab terminlar nemis tiliga o'zlashgan. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab axborot texnologiyalari, muhandislik va tabiiy fanlar sohasida inglizcha terminlar keng qo'llanila boshladi. Bu jarayonda o'zlashgan so'zlar bir necha turlarga ajratiladi:

1. To'g'ridan-to'g'ri o'zlashmalar — so'zlar hech qanday o'zgarishsiz qabul qilinadi: Computer, Internet, Laser
2. Moslashtirilgan o'zlashmalar — so'zlar nemis tilining fonetik va morfologik tizimiga moslashtiriladi: Telefon<Telephone, Struktur<Structure
3. Tarjimaviy o'zlashmalar — so'zning ma'nosi saqlanib, nemischa shaklda ifodalanadi: Künstliche Intelligenz<Artificial Intelligence

4. Yarim o'zlashmalar — inglizcha va nemischa elementlar aralashmasidan hosil bo'ladi: googeln, chatten, posten

O'zlashgan so'zlarning til tizimidagi o'rni. O'zlashgan so'zlar nemis tilining lug'aviy qatlamini boyitadi va yangi tushunchalarni ifodalash imkonini beradi. Ular nafaqat ilmiy-texnik sohalarda, balki kundalik nutqda ham faol qo'llaniladi. Zamonaviy dunyoda globallashtirish, ilmiy taraqqiyot va madaniy aloqalar kuchaygani sari tillararo o'zaro ta'sir jarayoni ham jadallashib bormoqda. Natijada ingliz tilidan nemis tiliga o'zlashgan so'zlarning soni ortib, ularning funksional ahamiyati kengaymoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidan nemis tiliga o'zlashgan so'zlar turli yo'llar orqali kirib keladi va til tizimining barcha darajalarida moslashuv jarayonidan o'tadi. Ayrim birliklar o'zining asl shaklini saqlab qolsa, boshqalari fonetik va morfologik o'zgarishlarga uchraydi yoki tarjima asosida shakllanadi. Bu jarayon, bir tomondan, nemis tilining dinamik rivojlanishini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, xalqaro ilmiy va texnologik aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ingliz tilidan nemis tiliga o'zlashgan so'zlar zamonaviy nemis tilining ajralmas qismiga aylangan. Ularning lingvistik xususiyatlari doimiy rivojlanish jarayonida bo'lib, til tizimining turli darajalarida namoyon bo'ladi. Ushbu o'zlashmalar tilning boyishiga, yangi terminlarning shakllanishiga va xalqaro muloqotning rivojlanishiga xizmat qiladi. Kelajakda ilm-fan va texnologiyaning yanada rivojlanishi bilan birga o'zlashmalar soni ortib borishi va ularning til tizimidagi o'rni yanada mustahkamlanishi kutiladi. Shu bois, o'zlashgan so'zlarni tizimli ravishda o'rganish, ularni standartlashtirish va ularning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish tilshunoslik fanining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Eisenberg P. Englisch im Deutschen: Untersuchungen zum Einfluss der englischen Sprache auf das Deutsche, Akademie Verlag 1994
2. Eichhoff J. Lehnwörterbuch: Entlehnungen der deutschen Sprache in der Gegenwart, Walter de Gruyter 2001
3. Iskos A, Lenkova A, Deutsche Lexikologie, Leningrad, Procvischinia 1975, S.123
4. Scharnhorst J. Das Fremdwort im Deutschen: Sprachpurismus und Sprachwandel. – Berlin: Erich Schmidt Verlag, 2005.
5. Ҳоҗиев А. Тилшунослик асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2019.